

INGLIZ TILINI O'RGATISHDA RIOYA QILINISHI LOZIM BO'LGAN TAMOYILLAR HAMDA BU JARAYONNING TARJIMA BILAN BIRGA OLIB BORILISHI

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabi
ingliz tili fan o'qituvchisi*

M. Ibragimova

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

M.Ergashova

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida mamlakat ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasida ta'lim sifati va samaradorligi oshib bormoqda. Shuningdek, bugungi kundagi axborotlar shiddatli va yangiliklar oqimi har bir shaxsdan fikriy yetuklikni, to'g'ri mushohada yurita olishni, axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Xalqaro axborotning katta qismi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'riqnomalari, xorijiy davlatlar o'rtasidagi aloqalar ham asosan ingliz tilida bo'lganligi uchun "davr" insondan ingliz tilini va uni amaliyotda qo'llay olishni talab qilmoqda. Yurtimizda ingliz tiliga bo'lgan e'tibor va uning boshqa chet tillari orasidagi mavqeyi anchagina yuqori bo'lganligi bois ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish borasidagi vazifalar to'la va sifatli amalga oshirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu kabi qulayliklarning barchasi yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yoshlar uchundir. Ingliz tili o'qituvchilari dars jarayonlarida o'ylangan maqsadga erishishi uchun, bu tilni o'rgatishda ona tili va ingliz tilida o'qish jarayonlarini birgalikda olib borishlari lozim. O'qishni o'rgatish psixologiyasi, psixolingvistikasi va fiziologiya kabi fanlar faktlari va metodik eksperimental natijalariga asoslanib amalga oshiriladi. Ingliz tilida sifatida tushunishni talab qiladi. O'quvchilar o'qishni til materialini ovoz chiqarib aytish, uni esda saqlash va tarjima qilishda mashq sifatida qabul qilmasligi kerak. Ular o'qiyotganida xotirasida mavjud bo'lgan so'zlar bilan tarjima qilishga harakat qilishi, notanish so'zlar uchraganda, ularni qo'shimcha tarzda sinonimlar bilan lug'at daftariga yozib, yodlab borishi, keyingi uchraydigan yangi matnlarni tarjima qilishida qiyinchiliklarning kamayishiga asosiy omildir. Ingliz tilidagi so'zlar, matnlar, monologlar, dialoglar o'quvchi yoshini hisobga olgan holda berib boriladi. Hozirgi paytda ingliz tilining uzluksiz o'rgatilishi yo'lga qo'yilayotganligi sababli har bir ta'lim maskanlarda ushbu til o'rgatilib kelinmoqda. Ingliz tilini o'rgatishdan asosiy maqsad, vazifasi og'zaki nutq bo'yicha elementar masalalarni, ya'ni murakkab bo'lmagan so'zli matnni tinglab tushunish va uning asosida monolog, diolog tuzish, suhbatlashish, she'rni yodlab va aytib berish deb yozadi. Boshlang'ich ta'limning 1-2 sinflarida tarjima qilish o'rgatilmaydi, balki tarjima jarayoniga tayyorlantirib boriladi. 3-4 sinf o'quvchilarining xotirasidagi so'z lug'ati ancha boyib qolganligini hisobga olgan holda ularga kichik hajmdagi matnlarni tarjima qilish uchun berish mumkin. Bu kabi vaziyatlarda o'quvchi, albatta lug'at bilan ishlashni birgalikda olib borish

kerak. Tarjimada lug‘at bilan ishlash o‘quvchi bilimining ortishiga, inglizcha nutqni shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Ta’limning o‘rta bosqichida o‘quvchilar o‘zlari mustaqil tarzda ingliz tilida matn tuzadilar va tuzilgan matnlarni bir-biriga almashtirib, xatolari ustida ishlagandan so‘ng, ularni tarjima qilib, o‘zlarining so‘zlari (matndagi so‘zlarning sinonimlari, frazalar....) bilan aytib berishlari mumkin. Keyingi bosqichlarda o‘quvchilar insho yozishni boshlashlari hamda uni takomillashtirib borilishini o‘qituvchi o‘z nazoratiga olishi kerak. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z fikrini nutqida tez ifodalay olish qobiliyatini shakllantirish uchun darslarni imkon darajasida suhbat tarzida olib borilishini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda maktablarda ingliz tilini o‘rgatish boshqa o‘quv yurtlariga qaraganda eng chuqur va puxta ishlab chiqilgan.

Professional ta’limda ingliz tilini o‘rgatishda asosan, bu tilning grammatikasiga katta e’tibor beriladi. Kasb-hunar maktablarida ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llaniladigan metod, usul yo‘llari, o‘rta maktabning yuqori sinflarida foydalaniladigan metod, usul, mashqlar qo‘llaniladi. Lekin dars soati ko‘p bo‘lgani uchun materiallar ko‘p beriladi. Ta’limning bu bosqichlarida o‘quvchi, talabalarga tarjimaning sir-asrorlari, turli to‘liq o‘rgatilmaydi, faqatgina tarjima qilishga ko‘nikmalar hosil qiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘rgatishning uzluksizligining ta’minlashdan asosiy maqsad mazkur til bo‘yicha chuqur bilim berish, talabalar kelajakda ingliz tilini ish faoliyatida mukammal qo‘llay olish, ingliz tilida erkin so‘zlasha olish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Oliy ta’lim maskanlarida tarjimonlik sohasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi fakultetlar mavjud. U yerda talabalarining maktab, litsey va kasb-hunar maktablarida ingliz tilidan olgan bilimlari asosida tarjima nazariyasi va amaliyotining sir-asrorlari o‘rgatilib, ular mazkur sohaga yo‘naltiriladilar. Insoniyat taraqqiyot yo‘lining va taraqqiyot jarayonlarining markazida tarjimonlar turganligi sababli, bu soha mutaxassislarni tayyorlovchi tarjimon pedagoglar zimmasiga katta ma’suliyat yuklanadi. Tarjima jarayoniga kirib kelayotgan talaba xorijiy tildagi asarlarni tarjima qilishga oshiqmasligi kerak. U avvalo tarjima nazariyasini chuqur o‘zlashtirishi bilan birgalikda, tarjima qilmoqchi bo‘lgan asarlar mukammal egallashi kerak bo‘ladi. Yigirmanchi asrning o‘ttizinchi yillaridan boshlab tarjimaning bir qancha turlari farqlanadigan turlari bo‘ldi. Talaba yoki tarjimon quyidagi turlardan birini qo‘llagan holda xorij asarlarini tarjima qiladi.

1. Adekvat tarjima;
2. Erkin tarjima;
3. Erkin-ijodiy tarjima;
4. So‘zma-so‘z tarjima;
5. Ma’nolar tarjimasasi;
6. Og‘zaki sinxron tarjima;
7. Sinxron tarjima;
8. Mashina yoki texnik tarjima;
9. Asliyatdan tarjima;
10. Vositali tildan tarjima;

Har bir tilning o'ziga xos leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari mavjud. Ularning mohiyatini anglamasdan turib, ko'r-ko'rona o'zga tillarga tarjima qilish mumkin emas. Shuning uchun tarjimada har bir qatlamlari birliklari, ularning funksional semantik ma'nolarini va distributiv alomatlarini, ularning o'zaro aloqalari, o'zaro ta'sirini hisobga olish tarjimaning mukammal va asliyatga yaqin bo'lishiga olib keladi. Tarjimon bo'lish istagidagi har qaysi talaba maktab, litsey va kasb-hunar maktablaridan olgan bilimi bilan cheklanib qolmasligi, o'z ustida qattiq ishlashi har bir fan hamda sohadan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishi, o'rganayotgan chet tili madaniyati, urf-odatlarini, shevalari to'g'risida ham qo'shimcha izlanishlar olib borib, ularni takomillashtirish kerak. Tarjima murakkab jarayon hisoblanganligi uchun tarjimondan sabr-toqat talab qilinadi. Tarjimon matn jarayoni haqida ma'lumotlarga ega bo'lmasa, uning talqini noto'g'ri bo'lishi mumkin. Zotan, tarjimon maqsadi tarjimada to'g'ri muloqotni tashkil etish, tarjimondan tilning sofligi, til borasidagi bilimning kengligi, intellekt, fikr teranligi, talqin haqqoniyati va farosati, asliyatga xolislik va muhabbat kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirishni talab qiladi. Zero, tarjimon madaniyatining boyligini arifmetika ko'rsatkichi emas, hayot, insoniy layoqat, malaka va qolaversa kuchli ijodkorlik irodasi belgilaydi.